



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 68-76 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLİYAVIY AKTIVLARI TURLARI HAMDA ULARNI TASNIFLASH SHARTLARI



Kenjebayeva Gulfuza Raxmatillayevna,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi”
kafedrası kafedrası katta o‘qituvchisi
e-mail: gulfuza1976@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda moliyaviy aktivlar aksiyadorlik jamiyatlarning moliyaviy holatini baholash imkonini beruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ularni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish va turlari bo‘yicha aniq tasniflanish moliyaviy hisobotning to‘g‘riligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari balansida aks ettiriladigan moliyaviy aktivlarning turlari, ularning buxgalteriya hisobi va likvidlik darajasi bo‘yicha tasniflanish shartlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek maqolada tadqiqot natijalaridan kelib chiqib moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, xususan MHXS 9 doirasidagi yondashuvlar asosida O‘zbekiston amaliyotiga oid takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy aktivlar, buxgalteriya hisobi, likvidlik darajasi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS), adolatli qiymat, aksiyadorlik jamiyatlari, investitsion jozibadorlik, moliyaviy shaffoflik.

Аннотация. В настоящее время финансовые активы являются одним из основных индикаторов, позволяющих оценить финансовое состояние акционерных обществ. Их правильное отражение в бухгалтерском учете и четкая классификация по видам играет важную роль в обеспечении достоверности финансовой отчетности. Исходя из этого, в данной статье на научной основе проанализированы виды финансовых активов, отраженных в балансе акционерных обществ, условия их классификации по бухгалтерскому учету и уровню ликвидности. Также, исходя из результатов исследования, в статье представлены предложения по практике Узбекистана на основе подходов в рамках международного стандарта финансовой отчетности, в частности МСФО 9.

Ключевые слова: финансовые активы, бухгалтерский учет, уровень ликвидности, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), справедливая стоимость, акционерные общества, инвестиционная привлекательность, финансовая прозрачность.

Abstract. Currently, financial assets are one of the main indicators that allow us to assess the financial condition of joint-stock companies. Their accurate reflection in accounting and clear classification by type are crucial for ensuring the accuracy of financial reporting. Based on this, this article scientifically analyzes the types of financial assets reflected in the balance sheet of joint-stock companies, the conditions for their classification by accounting and liquidity level. Also, based on the results of the study, the article provides proposals for the practice of Uzbekistan based on

approaches within the framework of the international standard of financial reporting, in particular IFRS 9.

Keywords: *financial assets, accounting, liquidity level, international financial reporting standards (IFRS), fair value, joint-stock companies, investment attractiveness, financial transparency.*

Kirish qismi. Zamonaviy iqtisodiyotda aksiyadorlik jamiyatlari biznesda shaffoflik, ochiqlik va mas'uliyatni ta'minlovchi asosiy tashkiliy-huquqiy shakllardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisoboti nafaqat ichki boshqaruv uchun, balki aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar, auditorlar va davlat nazorat organlari kabi tashqi manfaatdor shaxslar uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari balanslarida keltirilgan moliyaviy aktivlar tarkibi va ular to'g'risidagi ma'lumotlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati va investitsion jozibadorligi kabi strategik ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1].

Shu munosabat bilan, moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri anglash, ularni standartlashtirilgan mezonlar asosida tasniflash hamda hisobda ishonchli aks ettirish zamonaviy buxgalteriya nazariyasi va amaliyotida alohida o'ringa ega. Hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri moliyaviy aktivlarni likvidlik darajasiga ko'ra guruhlash, ularning naqd pulga tez aylanish qobiliyatini baholash va xalqaro tajriba asosida tasniflash hisoblanadi. Ayniqsa, moliyaviy aktivlarning likvidlik darajasi asosida guruhlanishi, ularni qisqa muddat ichida naqd pulga aylantirish imkoniyatini baholash va bu borada mavjud xalqaro tajribalarga tayangan holda tasniflash masalasi hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi [2]. Moliyaviy aktivlar aksiyadorlik jamiyatlari balansida odatda quyidagi asosiy toifalarda aks ettiriladi:

- Naqd pul mablag'lari va ekvivalentlari;
- Qisqa muddatli bank depozitlari;
- Aksiyalar va obligatsiyalar (investitsiya portfeli);
- Debitorlik qarzlari;
- Derivativ moliyaviy vositalar (fyuchers, opsiyonlar va boshqalar).

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartiga (MHXS 9) ko'ra, ushbu aktivlar amortizatsiyalashgan qiymat, adolatli qiymat va foydada yoki zarar natijasida baholanishi mumkin [3, 4]. Masalan, naqd pul, bank depozitlari va tez realizatsiya qilinadigan davlat obligatsiyalari eng likvid aktivlar hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida ushbu aktivlarning mavjudligi moliyaviy barqarorlik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlarini mustahkamlovchi omillardandir.

Xususan, MHXS 9 doirasida moliyaviy aktivlarni amortizatsiyalashgan qiymat, adolatli qiymat yoki foydada/zararda aks ettiriladigan qiymat asosida baholash bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud. Bu standartlar asosida aktivlarning likvidligi, risk darajasi, daromadlilik imkoniyati hamda moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida ushbu mezonlar asosida moliyaviy aktivlarning tasniflanishi ularning xalqaro hisobot tizimiga integratsiyalashuvi uchun muhim shartdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Moliyaviy aktivlar bugungi kunda iqtisodiy subyektlar, xususan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslari tarkibida muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy aktivlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi: naqd

pul mablagʻlari, tijorat banklaridagi depozitlar, korporativ yoki davlat aksiyalari, obligatsiyalar, shuningdek derivativ moliyaviy vositalar (fyuchers, opsiyalar, svoplar va boshqalar) [5, 6, 7, 8]. Ushbu aktivlar korxonaga kelgusida iqtisodiy manfaatlar (daromad) olib kelishi kutilayotgan moliyaviy vositalar sifatida talqin qilinadi.

Shu oʻrinda soha yetakchi olimlarining moliyaviy aktivlar boʻyicha fikr mulohazalarini keltirish oʻrinlidir, jumladan S. Nazarova muallifligidagi “Moliyaviy savodxonlik asoslari” oʻquv qoʻllanmasida “Moliyaviy aktivlarga (bank mahsulotlari va qimmatli qogʻozlar) yoki real aktivlarga (koʻchmas mulk, oʻz biznesi va b.) sarflangan investitsiyalar, investitsion kapital qoʻshimcha daromad manbalari boʻlishi mumkin” [9] deb taʼriflaydi.

Shuningdek N.Gʻ. Karimov va A.S.Ahmedov muallifligidagi “Moliya asoslari: moliya va investitsiyalar” oʻquv qoʻllanmasida “Moliyaviy aktivlarni asosiy formalariga; qarzli majburiyatnoma, aksiya va hosilaviy qimmatli qogʻozlar kiradi. Qarzli majburiyat nomalarni muomalaga pul bilan shugʻullanuvchi davlat, korxona va boshqa xoʻjaliklar (uy-xoʻjaliklar) chiqaradi. Shunday qarzli majburiyatnomalar bozorida davlat va korporativ obligatsiyalari va boshqa tijoratli aktivlar; shuningdek, isteʼmol zaymlarga oʻxshash aktivlar sotiladi. Qarzli majburiyatnomalar fiksirlangan daromadli instrumentlar deyilib, kelgusida fiksirlangan summani toʻlashga vaʼda beradi yoki qaʼtiy belgilangan foizli qimmatli qogʻozlar deyiladi” [10] deb taʼriflanadi.

Taʼkidlash kerakki moliyaviy resurslarni buxgalteriya hisobida toʻgʻri aks ettirish va baholash xalqaro tajribada MHXS 9 standarti asosida amalga oshiriladi. Mazkur standartda moliyaviy aktivlarning toifalari, ularni dastlabki (initial recognition) va keyingi baholash (subsequent measurement) tamoyillari aniq belgilangan. Jumladan, aktivlar adolatli qiymat (fair value) yoki amortizatsiyalashgan qiymat (amortised cost) asosida baholanishi kerakligi koʻrsatib oʻtiladi. Ushbu mezonlar tanlashda aktivning kutilayotgan pul oqimlari va subyektning moliyaviy strategiyasi hal qiluvchi omillar sifatida eʼtiborga olinadi [11].

Ilgʻor xorijiy mamlakatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va boshqa moliyaviy rivojlangan davlatlar amaliyotida moliyaviy aktivlarning bahosi nafaqat ularning nominal yoki balans qiymati bilan, balki likvidlik, daromadlilik, risk darajasi, bozor narxlarining barqarorligi kabi kompleks koʻrsatkichlar asosida ham tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv aktivlarni tahlil qilishda faqat buxgalteriya qiymatiga emas, balki ular bilan bogʻliq boʻlgan iqtisodiy foydaning real salmogʻiga eʼtibor qaratilishini taʼminlaydi [12].

Shuningdek, xalqaro adabiyotlarda moliyaviy aktivlar bilan ishlashda ehtiyotkorlik (prudence), shaffoflik (transparency) va moslik (consistency) tamoyillariga alohida urgʻu beriladi. Bu tamoyillar nafaqat hisobotlarning aniqligini oshiradi, balki aktivlarning real qiymatini aks ettiruvchi indikatorlarni ishlab chiqish va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish imkonini ham yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy aktivlarini tasniflash va ularni likvidli aktivlar sifatida baholash mezonlarini chuqur va ilmiy asoslangan tahlil qilish uchun zamonaviy uslubiy yondashuvlarni qoʻllaymiz. Tadqiqotimizning aniqligi, ishonchliligi va amaliy ahamiyatini taʼminlash maqsadida har bir usul muayyan ilmiy

vazifalarni hisobga olgan holda tanlandi va qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, tegishli vazirliklar tomonidan tasdiqlangan uslubiy materiallar, xalqaro va milliy ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Bundan tashqari, korxonalarning amaliy tajribasi va auditorlik hisobotlari o'rganildi. Bu bizga amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan asosli ilmiy xulosalarni shakllantirish va real ehtiyojlarga mos keladigan takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy aktivlarining saqlanishi va ko'payishini ta'minlashda moliyaviy vositalar muhim rol o'ynaydi. Ular xususiy shaxslar va kompaniyalar uchun investitsiya qilish, uzoq muddatli strategiyalarni rejalashtirish va moliyaviy boshqaruvning asosi hisoblanadi. Moliyaviy aktivlar — korxona egaligida bo'lgan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar yig'indisini ifodalovchi moliyaviy resurslardir. Ular moliya bozorida bitim natijasida vujudga keladi. Pul mablag'lari yetishmovchiligini boshdan kechirayotgan emitent, qarz oluvchida moliyaviy majburiyatlar, ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lgan investor, kreditorda esa moliyaviy aktivlar paydo bo'ladi [13].

Yuqoridagi berilgan tarifdan kelib chiqib aytish mumkinki korxonalarning moliyaviy aktivlarini tahlil qilish jarayonida ularni uning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi mulkiy boyliklar majmuasi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bu qiymatlarni ma'lum belgilariga ko'ra o'xshashligiga qarab guruhlariga, sinflarga ajratish jarayoni tasniflash deb ataladi. Bu guruhlar yoki sinflar kichik guruhlariga, ular esa o'z navbatida yanada kichik guruhlariga bo'linishi mumkin.

Taqsimlash uchun asos bo'lib turli belgilar yoki mezonlar xizmat qilishi mumkin, ular muhim yoki unchalik muhim bo'lmashligi mumkin. Muhim belgilar bo'yicha tasniflash asosiy, unchalik muhim bo'lmagan belgilar bo'yicha tasniflash esa qo'shimcha hisoblanadi. To'g'ri tuzilgan aktivlar tasnifi korxonalar aktivlarini boshqarish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotida moliyaviy aktivlarni baholash bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Aksariyat hollarda bozor narxlari, adolatli qiymat yoki kelajakdagi iqtisodiy foyda potensialiga emas, balki an'anaviy buxgalteriya hisobi usullariga asoslangan konservativ yondashuv qo'llaniladi. Natijada, moliyaviy hisobotlarda aktivlarning haqiqiy qiymati buzib ko'rsatiladi, bu esa korxonaning moliyaviy holatini ishonchli baholashni sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Mazkur yondashuvning oqibatida aksiyadorlik jamiyatlarining likvidlik ko'rsatkichlari ham real holatga mos kelmasligi mumkin. Ayniqsa, qisqa muddatda naqd pulga aylantiriladigan aktivlar (ya'ni likvid aktivlar) noto'g'ri baholanganda, kompaniyaning qisqa muddatli to'lovga layoqatlilik darajasi past yoki yuqori ko'rsatilishi ehtimoli ortadi. Bu esa manfaatdor tomonlar – investorlar, kreditorlar, auditorlar va davlat nazorati organlari uchun noto'g'ri qaror qabul qilish xavfini kuchaytiradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan biri bo'lgan MHXS 9 – "Financial Instruments" asosida olib borilgan baholashlar esa moliyaviy aktivlar qiymatini adolatli va ishonchli tarzda aniqlash imkonini beradi. MHXS 9 asosida aktivlar amortizatsiyalashgan qiymat yoki adolatli qiymat bo'yicha baholanadi, bu esa ularning


real iqtisodiy qiymatini aniqroq aks ettirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, moliyaviy tahlil natijalarining aniqligi va solishtiriluvchanligini oshirishda ushbu standart muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, MHXS 9 asosida olib borilgan yondashuv orqali korxonalarning investitsion jozibadorligi ortadi. Chunki, adolatli qiymat asosida yuritilgan moliyaviy hisobotlar investorlar uchun ochiq, shaffof va ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv moliyaviy risklarning baholanishini osonlashtiradi, aktivlarning rentabelligi haqida aniqroq tasavvur beradi va kompaniyaga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi.

Shu boisdan, aksiyadorlik jamiyatlarida mavjud hisob siyosatini takomillashtirish va moliyaviy aktivlarni baholashda MHXS 9 talablariga rioya qilish nafaqat buxgalteriya amaliyotining ishonchliligini ta'minlaydi, balki korxonaning global moliyaviy axborot maydoniga moslashuvini ham kafolatlaydi.

Yuqoridagi mulohazalar bilan bir qatorda aytish mumkinki moliyaviy aktivlar har qanday tashkilot, korxona, kompaniyaning o'z majburiyatlarini ularning ko'lami va xususiyatidan qat'i nazar bajarish imkonini beradigan eng yuqori likvidli resurslardir. Bunday aktivlarning mavjudligi va aylanish tezligiga mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonaning butun moliyaviy-xo'jalik faoliyati bog'liq bo'ladi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy aktivlarning eng ahamiyatli guruhi pul mablag'lari hisoblanadi.

Bizningcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy aktivlarning tasniflashda quyidagi shartlariga e'tibor qaratish lozim (1-rasm).



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy aktivlarning tasniflash shartlari [14].

Buxgalteriya hisobi sohasida barcha aktivlarni baholashning ikki asosiy usuli mavjud: vaqt o'tishi bilan kamayuvchi va real qiymat bo'yicha.

Odatda real qiymatda yaqin vaqt ichida sotilishi yoki sotib olinishi rejalashtirilgan, shuningdek, portfelda bo'lgan va yaqin vaqt ichida foyda olish uchun mo'ljallangan moliyaviy aktivlar hisobga olinadi. Yuqorida keltirilgan MHXS qoidalariga muvofiq barcha moliyaviy majburiyatlar dastlab real qiymatda hisobga olinadi. Keyinchalik ular

real qiymat bo'yicha qoldirilishi yoki vaqt o'tishi bilan kamayib boradigan qiymatga ajratish mumkin.

Amaliyotda aksariyat buxgalterlar moliyaviy majburiyatlarni, vaqt o'tishi bilan kamayishni hisobga olgan holda qiymat bo'yicha hisobga olinadi. Biroq, istisnolar ham mavjud. Savdo bilan bog'liq majburiyatlar, moliyaviy kafolat shartnomalari bo'yicha majburiyatlar, shuningdek, bozor foiz stavkasidan past bo'lgan kreditlar bundan mustasno. Ko'pincha, to'lanishi kerak bo'lgan kreditlar va qarzlari, shuningdek, veksellar vaqt o'tishi bilan kamayishini hisobga olgan holda qiymat bo'yicha hisobga olinadi. Savdo sohasida qarz majburiyatlarining bir necha turlari mavjud bo'lib, ular uzoq muddatli deb ataladi. Bularga, masalan, pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan aksiyalar, shuningdek, obligatsiyalar va aksiyalarning qarz qismlari kiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy aktivlarni sotib olish va foydalanish maqsadlariga ko'ra asosiy uchta turga bo'lish mumkin:

1. Investitsiya vositalari. Bu uzoq muddatli istiqbolda daromad olish uchun ishlatiladigan vositalardir. Ular dividendlar, foizlar yoki qiymat o'sishi ko'rinishida daromad keltirishi mumkin. Bunday vositalarga sotish mumkin bo'lgan, shuningdek, so'ndirish vaqtigacha ushlab turiladigan moliyaviy aktivlar kiradi.

2. Spekulyativ vositalar. Bu qisqa muddatda daromad olish uchun ishlatiladigan vositalardir. Daromad foiz stavkalari, valyuta kurslari yoki moliyaviy vositalar qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday vositalarga birjada savdo qilish uchun mo'ljallangan aktivlar kiradi.

3. Tranzaksion aktivlar — bu bitimlarni ta'minlash uchun ishlatiladigan aktivlar. Bularga debitorlik qarzlari, pul mablag'lari harakatini tezlashtirishga yordam beradigan veksellar va cheklar kabi hisob-kitob vositalari, shuningdek, banklardagi naqd pullar va qisqa muddatli depozitlar kiradi. Bu vaqtincha bo'sh pul mablag'larini joylashtirish uchun ishlatiladigan moliyaviy vositalardir [15].

Daromadning barqarorligi va bashorat qilish darajasiga qarab, moliyaviy aktivlarning uchta toifasini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kafolatlangan daromad keltirmaydigan aktivlar.
2. Barqaror daromadni ta'minlovchi aktivlar.
3. Daromad keltirmaydigan aktivlar.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy aktivlarni tasniflash ulardan foydalanish maqsadlari va sotib olish usullari bilan chambarchas bog'liq. Kafolatlangan daromad keltirmaydigan aktivlarga ulushli va hosilaviy instrumentlar kiradi. Barqaror daromadni ta'minlovchi aktivlar qarz instrumentlaridir. Daromad keltirmaydigan aktivlarga pul mablag'lari va debitorlik qarzlari kiradi.

Harakat muddatiga qarab aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy aktivlarni ikki toifaga ajratish mumkin:

1. Uzoq muddatli instrumentlar — muomalada bo'lish muddati bir yildan ortiq bo'lgan instrumentlar. Ularga sotilishi mumkin bo'lgan investitsiyalar, shuningdek, so'ndirish muddati belgilanmagan moliyaviy vositalar, masalan, aksiyalar kiradi. Ushbu vositalar kapital bozorida ishlatiladi.

2. Qisqa muddatli instrumentlar — muomala muddati bir yil va undan kam bo'lgan instrumentlar. Bularga pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, xaridorlar va

buyurtmachilarning debitorlik qarzlar kiradi. Shuningdek, olinishi lozim bo'lgan vekselar va tez sotilishi mo'ljallangan investitsiyalar ham shular jumlasiga kiradi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda bizningcha aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy aktivlarning tasniflash shartlarining eng asosiysi bu ularni qanchalik tez pulga aylantirishga qarab, guruhlariga ajratishdir. Bunda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy aktivlar uch guruhga bo'linadi:

1. Past likvidli - bular sotish mushkul bo'lgan uzoq muddatli qo'yilmalar hamda uzoq muddatli debitorlik qarzlaridir.

2. Likvidli - bular tezda sotish mumkin bo'lgan qisqa muddatli qo'yilmalar, shuningdek, savdo uchun mo'ljallangan investitsiyalar, debitorlik qarzlar va olinadigan veksellardir.

3. Yuqori likvidli — bular pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, masalan, bank omonatlaridir [16].

Aksiyadorlik jamiyatlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash hamda ishlab chiqarish va mahsulotlarini sotish jarayonlarining o'sishiga ko'maklashish uchun moliyaviy aktivlarni boshqarish puxta o'ylangan va samarali bo'lishi lozim. Agar aktivlardan oqilona foydalanilmasa, bu jamiyat faoliyatining ko'plab jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: xomashyo va materiallar zaxiralarini shakllantirish, mehnat unumdorligi, tayyor mahsulotlarni sotish, raqobat bozordagi o'rni va hokazo.

Hatto yaxshi foyda ko'rayotgan muvaffaqiyatli aksiyadorlik jamiyatlari ham aktivlarni samarasiz boshqarish oqibatida qiyinchiliklarga duch kelishlari ehtimoldan xoli emas. Moliyaviy aktivlarni boshqarish aksiyadorlik jamiyatlarining kapital aylanish tezligini optimallashtirish uchun asosiy vositadir. Bu jarayon operatsion siklni qisqartirish, o'z mablag'laridan samaraliroq foydalanish va qarz moliyalashtirish manbalariga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini ishonchli baholash va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda moliyaviy aktivlarni to'g'ri tasniflash va baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, buxgalteriya hisobida moliyaviy aktivlarning xalqaro mezonlar asosida tasniflanishi va ularga nisbatan yagona yondashuv qo'llanishi korxona faoliyati haqida aniq va asosli axborot olish imkonini beradi. Bu borada, birinchi navbatda, buxgalteriya siyosatini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan MHXS 9 asosida takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Moliyaviy aktivlar, ayniqsa likvid aktivlar, qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish va to'lovga layoqatlilikni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli ularning bozor sharoitlariga mos tarzda baholanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan bozor narxlarining doimiy monitoringini yo'lga qo'yish, moliyaviy aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash va real baholash tizimini joriy etish zarur. Bu nafaqat moliyaviy axborotning aniqligini oshiradi, balki buxgalteriya hisobotlarining manfaatdor tomonlar tomonidan e'tirof etilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, buxgalteriya amaliyotida xalqaro standartlarni joriy etish jarayonida malakali kadrlar tayyorlash va ularni uzluksiz malaka oshirish mexanizmlarini yaratish muhim o'rin tutadi. Buxgalterlar, auditorlar va moliyaviy tahlilchilar uchun MHXS asosidagi maxsus o'quv dasturlarini joriy etish orqali amaliy tajriba va nazariy bilimlar

uyg'unligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy hisobotlar sifatini oshiradi hamda ularni xalqaro moliyaviy axborot muhitida tan olingan darajaga olib chiqadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ayniqsa likvid aktivlar tasnifini aniq va izchil belgilab olish, ularning moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash korxonalarning moliyaviy shaffofligini kuchaytiradi. Bu esa investorlar va kreditorlar tomonidan korxona faoliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga, moliyaviy risklarni baholashni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

- Aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya siyosatini MHXS 9 talablari asosida yangilash;
- Moliyaviy aktivlarning adolatli bahosini ta'minlash uchun bozor monitoringi tizimini yaratish;
- Likvid aktivlar tasnifini me'yoriy hujjatlar asosida aniq belgilash;
- Buxgalterlar va auditorlar malakasini xalqaro darajada oshirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim dasturlarini joriy etish.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyaviy aktivlarni boshqarish tizimining sifatiga bog'liq. Aktivlarni tahlil qilish va tasniflash ham qisqa, ham uzoq muddatli rejalarni samarali amalga oshirish, moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatini saqlab qolish, shuningdek, aktivlar va moliyalashtirish manbalaridan yanada oqilona foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismanov, I. N. (2023). The considerations for some aspects of cost accounting system methodology. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 08050). EDP Sciences.
2. Qudbiyev, N. (2024). PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 3(1 Part 3), 131-138.
3. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 – Financial Instruments. – London: IFRS Foundation, 2022
4. Международные стандарты финансовой отчётности: базовый курс: учеб. пособие / авт.-сост. Н. Н. Илышева, Е. Р. Синянская, О. Е. Решетникова, О. В. Савостина. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017. — 236 с.
5. Финансовые рынки и институты: учебное пособие / Е. Г. Князева, Е. А. Разумовская, М. И. Львова, Н. Н. Мокеева, О. В. Толмачева; под общ. ред. О. В. Толмачевой; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский федеральный университет. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2020. — 96 с.
6. Финансовый менеджмент: учебное пособие / Ю. А. Долгих, Т. В. Бакунова, Е. А. Трофимова, Е. С. Панфилова; под ред. Ю. А. Долгих; М-во науки и высшего образования РФ. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. — 118, [2] с.
7. Moliya bozori: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar; – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 324 b.

8. Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2022. – 404 b.
9. Nazarova S. Moliyaviy savodxonlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2020. 148 bet.
10. N.G‘.Karimov, A.S.Ahmedov. Moliya asoslari: moliya va investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021, 290 bet.
11. Беззатеева, Т. И. (2016). Оценка финансовых обязательств по МСФО (IFRS) 9. Актуальная бухгалтерия, (5).
12. Волкова, Е. К. (2023). Анализ современных процессов глобального финансового рынка. Информационно-аналитический и научно-практический журнал Национального банка Республики Беларусь «Банковский вестник, (8), 721.
13. Паштова, Л. Г. (2013). Финансовые инструменты и финансовые активы в России (статья). Финансовый вестник: финансы, налоги, страхование, бухгалтерский учет, (12).
14. Маркова, М. Г. (2016). ФИНАНСОВЫЕ АКТИВЫ ПРЕДПРИЯТИЯ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ. In ЦИВИЛИЗАЦИЯ ЗНАНИЙ: РОССИЙСКИЕ РЕАЛИИ (pp. 420-422).
15. Atabaeva, Z. A., & Khojaev, A. S. (2020). Investment activity and analysis of investment projects. ISJ Theoretical & Applied Science, 5(85), 714-720.
16. Abduraximov, B. U. O., Qudbiyev, N. T., & Mominov, I. L. O. (2021). Aylanma mablag 'larni boshqarish tijorat korxonasi muvaffaqiyatining asosi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 724-733.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

